

TILSHUNOSLIKDA GENDER TADQIQI MASALASI
THE PROBLEM OF GENDER STUDY IN LINGUISTICS
ПРОБЛЕМА ИЗУЧЕНИЯ ГЕНДЕРА В ЛИНГВИСТИКЕ

N.Xoshimova, f.f.f.d.

Annotatsiya

Mazkur maqola gender masalasi bo'yicha jahon tilshunosligida olib borilgan izlanishlar sharhiga bag'ishlangan. Jahon tilshunosligida gender masalasining turli aspektlarda o'rganilishi gender tili, gender nutqi hamda gender konsepti tushunchalarini ajratishga imkon yaratadi. Gender tili, nutqi hamda konsepti masalasi bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borgan tadqiqotchilar tizimli tartibda ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: gender, gender tili, gender nutqi, gender konsepti, diskurs, pragmalingsvistika, kognitiv tilshunoslik, lingvomadaniyatshunoslik.

Hozirgi kun tilshunosligida "gender" tushunchasiga qiziqish ortib bormoqda. Gender masalasi tilshunoslikning turli yonalishlarida o'rganiladi. "Gender" tushunchasi XX asrning ikkinchi yarmidan tilshunoslikda o'rganila boshlangan. Bu davrda gender tushunchasi biologik farqlarni ijtimoiy, madaniy, psixologik tuzilmalar o'z ichida qamragan holda kategoriya sifatida ifodalanadi. Gender masalasi tilshunoslik fanidan tashqari boshqa fanlarda ham qiziqish uyg'otdi. Biroq tilshunoslik fanida tadqiqotlar soni samarali bo'lib, gender masalasining o'rganilishi ham til, ham nutq doirasida amalga oshgan.

Hozirgi zamon lingvogenderologik tadqiqotlar quyidagi masalalarga e'tibor qaratadi:

1. Til va unda genderning ifodasi: nominativ tizim, leksika, sintaksis, jins kategoriylari. Mazkur masalalar V.Pilaykina, O.Ryabko, V.Samarina, A.Xolod, V.Strausovlar izlanishlarida ko'zga tashlanadi.

2. Ayol va erkakka xos nutq muomalasi: nutqiy strategiya va taktikalar, genderga qaratilgan leksika, genderga asoslangan leksika, genderga xos sintaktik qurilmalar, muloqotning samarali o'tishiga moslangan usullar. Mazkur masalalar yuzasidan A.Leontyev o'z fikrini ifoda etgan.

Tilshunoslikda gender tili tadqiqi turli tamoyillar yondashuvida olib boriladi. Jumladan, defisit tamoyili, dominantlik tamoyili hamda dinamik yoki tafovut tamoyili. Defisit tamoyili erkaklar tili me'yor sifatida qabul qilinib, ayollar tili esa me'yordan chetlanish hisoblanar edi. Gender tilini uch tamoyillar tadqiqida tilshunoslik faniga o'z hissalarini O.Yespersen va R.Lakoff qo'shgan[. Dominantlik tamoyili ijtimoiy-madaniy an'analar ta'sirida erkaklar tili ayollar tilidan mavqesi yuqoriligi hamda muloqotda erkaklar tili ustun kelishini namoyon etadi. Dinamik tamoyiliga ko'ra gender tili farqi tug'ma emas, balki ijtimoiy omillarga bog'liqligi tushuniladi.

Shuningdek, gender masalasi bo'yicha tilshunoslikning turli yo'nalishlarda tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, kognitiv tilshunoslikda gender masalasi ko'p tadqiqotchilarning e'tiborini tortgan. Kognitiv tilshunoslik doirasida gender asosida konseptuallashtirish va kategoriyalashtirish kabi kognitiv jarayonlar aks etiladi. Mazkur jarayonlar olamning lisoniy manzarasiga gender orqali yondashishni ta'minlab, gender belgililikni ajratib beradi. Hozirgi davr tadqiqotlarda gender belgili kategoriyalar sifatida "maskulinlik" va "femininlik" kategoriyalari e'tirof etiladi. Biroq, ayrim tillarda (xususan, rus tili) ot va sifatlarda jins kategoriyasini ham ajratsih mumkin. Kognitiv tilshunoslik fani doirsida gender masalasi bo'yicha A.Prima, N.Paskova, N.Palanchuk, D.Nechayevskiy, D.Malishevskaya kabi tadqiqotchilar ilmiy izlanishlari bilan mazkur yo'nalish rivojlanishiga hissa qo'shgan.

Har qaysi tilning konseptosferasida gender belgili elementlarning ko'pligini e'tiborga olgan holda tadqiqotlar obykti sifatida ma'lum bir konsept yoki konseptosfera tanlanadi. Masalan, N.Tolchina "do'stlik" konseptida gender belgili birliklarni tadqiq qilgan. Ashula va qo'shiq diskursida "sevgi" konseptida gender ifodasi masalasini Y.Menzairova ochib bergan. Ayrim tadqiqotlarda

“ayol” gender belgili birliklar tahlilga tortilib, mazkur konsept yuzasidan Y.Chistyuxina nemis tilida, O.Shishigina ingliz tilida, O.Chibisheva, I.Adonina, A.Bikova rus tilida izlanishlar olib borgan.

Kognitiv tilshunoslikda gender tadqiqning bir necha yo‘nalishlari ajralib chqqan. Jumladan, kognitiv-lingvomadaniy yondashuv, kognitiv-diskursiv (pragmatik) yondashuv hamda fenomenologik yondashuv.

Kognitiv-lingvomadaniy yondashuv gender konseptidagi millatga xos jihatlarning tadqiqini nazarda tutadi. Bunda konsept sifatida lingvokulturema termini faollashib, tilda aks etilgan madaniyatning o‘ziga xosligi namoyon etiladi. Mazkur yondashuvda G.Slishkin, Y.Belik tomonidan tadqiqotlar olib borilgan.

Kognitiv-diskursiv yondashuvda gender belgili leksik birliklarning muloqot jarayonida qo‘llanilishi ifodasini topadi. Bu yonalishdagi tadqiqotlar qatoriga televideniye, reklama diskurisda gender tili, gazeta va jurnallarda maqola matnlarida hamda maqola nomidagi gender belgili birliklar tahlili kiritiladi. Mazkur yondashuvda ham tadqiqotlar soni talaygina. Jumladan, Z.Galimova, I.Groshev, I.Dubovskaya, O.Gukosyantslarning ilmiy ishlarini mazkur yo‘nalish tadqiqotlar qatoriga qo‘shish mumkin.

Fenomenologik yondashuvda gender konsepti ifodasida konseptual metaforaning tadqiqi aks etiladi. Bu yo‘nalish masalasi B.Fraser, A.Frownfelter, M.Ivanova, G.Lakoff, O.Komissarovalarning tadqiqotlarida ko‘zga tashlanadi.

Shuningdek, kognitiv tilshunoslikda nutq shakllanish jarayonining modellashtirilshida gender belgililik yuzasidan tadqiqotlar olib borilmoqda. Erkak va ayolga xos matnlar, erkak va ayollarning so‘zlash tezligi, matnning qisqa/uzunligi bugungi kunda keng o‘rganilmoqda.

Tilshunoslikning kommunikativ yo‘nalishida gender tili tadqiqiga bag‘ishlangan ilmiy ishlar soni oshib bormoqda. Mazkur yo‘nalishda erkak va ayolnutqining tashqi va ichki belgilari, femininlik va maskulinlik stereotiplarining tildagi faoliyati o‘rganiladi.

Psixolingvistika yo‘nalishi doirasida erkaklik va ayollik tushunchalarining lisoniy ongda aks etilishi yuzaga chiqadi.

Hozirgi kunda sotsiolingvistik tadqiqotlar doirasida gender jamiyatda sodir bo'layotgan madaniy-siyosiy voqealarga bog'liq bo'lib, dinamik tuzilma sifatida e'tirof etiladi.

Ko'rinadiki, bugungi kunda til va nutqdagi genderga xos xususiyatlar tilshunoslikning har bir yo'nalishida o'rganilib, til qonuniyatlaridagi yangi qirralarning namoyon bo'lishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Кирилина А. В. Гендерные исследования в лингвистике и теории коммуникации: учеб. пособие. – М., 2004. – С. 86.
2. Кирилина А. В. Особенности и тенденции развития гендерных исследований в российской лингвистике. Гендер: язык, культура, коммуникация: доклады первой междунар. конф. – М., 2001. – С. 5-14.
3. Горошко Е. И. Функциональная асимметрия мозга, язык, пол: Аналитический обзор. – М., 2005. – С. 45.